

YUQORI SINF O`QUVCHILARDA MA`NAVIY AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING KASB TANLASHIDAGI AHAMIYATI

Baqoyeva Zarina Rayimovna

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Meliyeva Zulayxo

*Nizomiy nomidagi. TDPU Fizika astranomiya yo'nalishi talabasi Telefon:+(99890)
062-81-82. zbakayeva69@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sinf o`quvchilarining kasb tanlashidagi muammolarni hal etishdagi jarayonlarda ma`naviy –axloqiy sifatlarni shakillantrishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: ma`naviy-axloqiy, ZAM, OAV, faoliyat, amaliyot.

Yuqori sinf o`quvchilarida ma`naviy-axloqiy sifatni rivojlantirishda milliy pedagogika yutuqlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. So`nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarning amaliyotga tatbig`i borasida xilma-xil yondashuvlar ko`zga tashlanmoqda. Ayrim holatlarda tadqiqotning samaradorligi haqida salbiy fikrlar ham bildirilmoqda. Bizning fikrimizcha, aslida tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini yoritishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy tavsifdagi materiallarni ishlab chiqishga alohida ehtiyoj mavjud. Jumladan, yuqori sinf o`quvchilarida ma`naviy axloqiy sifatni rivojlantirishga doir bir qancha fundamental milliy pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganki, ularga qayta-qayta murojaat qilish va samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Pedagog olima Oynisa Musurmonova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning katta qismini aynan umumiy o`rta ta`lim maktabi o`quvchilarida ma`naviy axloqiy sifatni rivojlantirish masalasi tashkil etadi. Ayniqsa, olimaning “Adabiyot va axloqiy tarbiya”, “O`quvchilar ma`naviy madaniyatini shakllantirish”, “Adabiyot darslarini tashkil etishning samarali shakllari”, “Yuqori sinf o`quvchilari ma`naviy madaniyatini shakllantirishning samarali shakl va metodlari”, “Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” kabi monografiya va uslubiy qo`llanmalarida bayon etilgan kontseptual pedagogik qarashlari diqqatga sazovordir. Olima muktab o`quvchilarida ma`naviy axloqiy sifatni shakllantirishning negizini eng avvalo, ma`rifiy-ma`naviy qadriyatlar bilan aloqadorlikda talqin etish lozimligini ta`kidlaydi. Ana shu sababli “Yuqori sinf o`quvchilari ma`naviy madaniyatini shakllantirishning shakl va metodlari” nomli kitobida ma`rifiy-ma`naviy qadriyatlarga quyidagicha ta`rif beradi: “Ma`rifiy-ma`naviy qadriyatlar – yosh avlodning ma`naviy madaniyatini

shakllantirishga ta'sir etuvchi milliy qadriyatlar faqat ijtimoiygina emas, balki pedagogik muammo hamdir .Shuningdek, olma o'quvchilarda ma'naviy axloqiy sifatni rivojlantirishda aksariyat hollarda o'qituvchilar e'tiboridan chetda qoladigan "ma'naviy faoliyat" tushunchasining milliy mohiyati va amaliy ahamiyatini aniq misollarda ifoda etgan: Ma'naviy "faoliyat" tushunchasiga nisbatan tor ma'noga ega bo'lib, maxsus tayyorgarliksiz uning bo'lishi mumkin emas, aks holda u faollikning bir shakli bo'lib qoladi. Faoliyat shunday jarayondan iboratki, unda inson tabiatni takror hosil qiladi va uni o'zgartiradi, shu bilan inson o'zini faol subyektga, o'zi o'zlashtirayotgan tabiat hodisalarini esa o'z faoliyatining obyektiqa aylantiradi. Shuningdek, o'quvchi ham faoliyatning faol shaxsi bo'lib, o'zi o'zlashtirayotgan fan, adabiyot, din, madaniyat va boshqa ma'naviy-ruhiy qadriyatlarni o'z faoliyatining tayanch nuqtasiga aylantiradi, bu tayanch nuqtani o'rghanish, o'zlashtirish natijasida uning xulq-atvori, xatti-harakatida axloqiy, siyosiy, diniy, nafosat kabi ma'naviy madaniyatning boshqa tarkibiy qirralari shakllanib boradi" .

Shuningdek, olma tomonidan badiiy-axloqiy qadriyatlarning o'ziga xos tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, mualliflik yondashuvi asosida ularni quyidagi tarzda tizimlashtirish mumkin:

- 1) Axloqiy qadriyatlar: vatanparvarlik; milliy o'zlikni anglash; marosimlar; oilaparvarlik; milliy g'urur; milliy ong; milliy iftixor; axloqiy fazilatlar;
- 2) Badiiy qadriyatlar: moddiy va ma'naviy ne'matlar; go'zallik; insonning ichki olami; badiiy did; badiiy ehtiyoj; estetik munosabat; nafosat; nabotot olami.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari o'quvchilarning ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllantirishda O.Musurmonova tomonidan bayon etilgan quyidagi omillarni hisobga olishlari lozim:

1. Xulq na'munasi. O'quvchi badiiy-axloqiy qadriyatlar mohiyati haqidagi ichki ruhiy holatini, ma'naviy-axloqiy qarashlar tizimini xatti-harakati, yurish-turishi va xulqida namoyon etadi. Shuning uchun xulq na'munasi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.
2. O'quvchi-yoshlar ma'naviy muhitda faoliyat jarayonida o'zligini anglashni shakllantirish uchun badiiy-axloqiy qadriyatlar bilan harakat orqali muloqotga kirishadi. Harakatsiz muhit, faoliyat bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun o'quvchi-yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlash ma'naviy harakat omiliga ham bog'liq.
3. Badiiy-axloqiy qadriyatlarning mohiyati, ma'naviy-axloqiy tajriba muxsus tashkil etiladigan nutqiy aloqalar asosida o'quvchi ongiga singdiriladi. Nutqiy

aloqalar tarbiya jarayoni ob`yektlari o`rtasida kechadi va o`quvchi ma`naviy madaniyatini shakllantirish jarayonida omil bo`lib xizmat qiladi.

4. O`quvchi-yoshlarning xulq na`munasi, ma`naviy harakati, nutqiy aloqalari samarasi o`qituvchi va o`quvchining o`z faoliyatlariga munosabatlari bilan belgilanadi. Badiiy-axloqiy qadriyatlarni tarixiy taraqqiyot bosqichlari asosida o`rganish, tarbiyaviy mohiyatidan ta`sirlanish va amaliy faoliyatda ularga tayanish, umuminsoniy qadriyatlarni darajasiga ko`tarilishini ta`minlash, insoniyat tarixida shaxs va jamiyat ma`naviy madaniyatini tarbiyalashda tutgan o`rniga haqqoniy baho berish ta`lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (o`qituvchi-o`quvchi)dan ijolkorlikni talab etadi .

5. Ta`lim-tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalarining milliy xarakteri.

6. Ijtimoiy omillar: ta`lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, mustaqillik, erkinlik, oshkorlik va tenglik.

7. Hududiy omillar: o`quvchi yashayotgan o`lka madaniy qadriyatlarning mazmun qamrovi, boyligi, tarixiy o`rni va ahamiyati;

Shuningdek, olima O.Musurmonova tomonidan ishlab chiqilgan o`quvchi-yoshlarning ma`naviy axloqiy sifatlarini shakllantirishga doir quyidagi shakl va metodlar tizimidan samarali foydalanish tavsiya etiladi:

1) ma`naviy axloqiy sifatni shakllantirish shakllari: konferensiya darslari; seminar dars; munozara darsi; amaliy dars; o`yin darsi; sayohat darslari; rolli darslar; tarbiyaviy tadbirlar; ekskursiya; davra suhbatlari; kichik guruhlarda ishlash;

2) ma`naviy axloqiy sifatni shakllantirish metodlari: muammoli-munozarali vaziyat; qiyosiy-izohli tahlil; badiiy-ma`rifiy asarlar ustida ishlash; ijodiy ish; tushunchali tahlil; mantiqiy tahlil; timsollar tahlili; ma`naviy-axloqiy qadriyatlarni sharhlab o`rganish; mustaqil ish.

Pedagog olim M.Quronov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ochiq axborot tizimi, ZAM muhiti sharoitida o`quvchilarini milliy ma`naviyatimizga yot g`oyalardan asrashning pedagogik-profilaktik tizimining ishlab chiqilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi, olim tomonidan taklif etilgan neyrolingistik dasturlashtirish texnologiyalaridan uzluksiz ta`limning barcha bosqichlarida samarali foydalanish mumkin .

Ma`lumki, yuqori sinf o`quvchilarida ma`naviy axloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasini tashxis etish ular tomonidan fazilatlarning qanchalik o`zlashtirilganligi va xulqida namoyon bo`lishi bilan belgilanadi. M.Quronov asarlarini tahlil etish asosida yuqori sinf o`quvchilarida ma`naviy axloqiy sifatni shakllantirishga ta`sir ko`rsatuvchi ijobiy va salbiy sifatlar tizimini quyidagi tarzda tasniflashtirish mumkin:

Ijobiy sifatlar: do'stga vafodorlik; o'rtoqlik; mehmono'stlik; odamgarchilik; insonparvarlik; tadbirkor-chaqqonlik; axloqan teranlik; turmushga nafosat bilan qarash; uquvlilik; fazilatlilik; sahiylik; milliy mafkuraviy e'tiqodlilik; milliy san'atga shaydolik; milliy g'ururlik; Vatanga muhabbatlilik; sof vijdonlilik; ornomuslilik; ogohlik; boshqa xalqlarga hurmatlilik; vazminlik; milliy iftixor.

Salbiy sifatlar: manmanlik; isrofgarchilik; laganbardorlik; tilyog`lamalik; xasislik; tamagirlik; shuhratparastlik; xudbinlik; behayolik; manfaatparastlik; bemehrlik; ma'naviy qashshoqlik; madaniy qashshoqlik; Vatan tuyg`usini his qilmaslik; tajavuzkorlik; xalq oldida burchsizlik; mahalliychilik; iymonsizlik; beqarorlik.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2007. 240-b
2. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. .diss. – T., 1993. – 105 b.
3. Shodiyeva, N. (2023). TA'LIM BILAN QAMRAB OLINMAGAN AHOLIGA SOG 'LOM FIKRLARNI YETKAZISHNING SAMARALI PSIXOLOGIK USULLARI. " Science Shine" International scientific journal, 1(2).
4. Шодиева, Н. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ. Наука и инновации, 2(В3), 564-566.
5. Pedagogik muhitni axborot xurujlaridan himoyalash tamoyillari". Ta'limganejmenti axborotnomasi 2013 yil №6 44-bet.